

“Ta’minotchi korxona”ga iste’mol qiladigan energiya hajmlarining o’zgartirilishi to‘g‘risida belgilangan tartibda takliflar kiritish. Bunda energiyaning shartnomadagi hajmini o’zgartirish bo‘yicha taklif mo‘ljallanayotgan o’zgartirishdan oldin, tegishli miqdor uchun 100 % to‘lov amalga oshirilgan taqdirda, 10 kundan kechikmay (joriy oy tugagungacha) berilishi lozim;

elektr energiyasi to‘liq hajmda etkazib berilmasligi yoki sifat ko‘rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq bo‘lmagan elektr energiya etkazib berilishi oqibatida etkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplatish;

SHartnomani qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama tartibda bekor qilish;

SHartnoma bekor qilganda foydalanilmagan elektr energiyasi miqdori uchun to‘langan mablag‘ni qaytarilishini talab qilish;

Elektr energiyasi etkazib berilishi to‘xtatilganda etkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

elektr ta’minoti shartnomasini tuzishda va bajarishda yuzaga kelayotgan nizolarni hal etish uchun sudga, monopoliyaga qarshi davlat organiga yoki bo‘ysunuvi bo‘yicha yuqori organga (mansabdar shaxsga) murojaat qilish.

“Iste’molchi” qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

4.2. “Iste’molchi” quyidagilarga majbur:

hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan belgilangan elektr energiyasini iste’mol qilish rejimiga rioya etish;

foydalanilgan elektr energiyasi (quvvati) uchun o‘z vaqtida haq to‘lash;

ishlatilayotgan elektr qurilmalari, asboblar va asbob-uskunalarining zarur texnik holatini va iste’molchilarining elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinishini ta’minalash, hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga yoki elektr ta’minoti korxonasiga elektr asbob-uskunalarining nosozligi to‘g‘risida xabar qilish;

elektr energiyasidan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

«O‘zenergoinspeksiyasining» yozma ko‘rsatmalarini o‘z vaqtida bajarish;

Elektr qurilmalarining tuzilishi qoidalari talablariga rioya etish;

o‘rnatilgan tartibda hududiy elektr tarmoqlari korxonasi vakiliga elektr energiyasini hisobga olish asboblarini ko‘rshiga imkon berish;

yil mobaynida yangidan ishga tushiriladigan elektr qurilmalaridan foydalanish boshlanishidan kamida bir oy oldin elektr energiyasining zarur miqdori uchun 100 % oldindan to‘lov amalga oshirilgan taqdirda “Ta’minotchi korxona”ga buyurtmanoma berish;

kelgusi yil uchun elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojni aniqlashda elektr energiyasini elektr tarmoqlaridan uzatishda, ishlab chiqariladigan maxsulotning (ishlar turlarining) texnologik jarayoni ishlab chiqarish ehtiyojlariga, ishlab chiqarish binolari va ma’muriy binolarni yoritish, isitish, shamollatish uchun elektr energiya sarfini, shuningdek, ushbu elektr tarmoqlariga ulangan subiste’molchilarining ehtiyojini hisobga olish.

SHuningdek, ulangan quvvati 5 MVt va undan ortiq bo‘lgan “Iste’molchi” “Ta’minotchi korxona”ning talabiga ko‘ra quyidagilarni hisobga olishi va bu haqida xabar berishi shart:

iste’mol qilinayotgan quvvatning har sutkalik, har oylik sarfi va amaldagi miqdori;

yagona elektr energetika tizimining eng ko‘p va eng kam yuklamalı davrlarida reaktiv energiya va quvvatning har sutkalik sarfi;

yagona elektr energetika tizimining eng ko‘p yuklamasining o‘tish davrida aktiv energiya (quvvat)ning har 30 daqiqadagi sarfi.

Ulangan quvvati 250 kVa va undan ortiq bo‘lgan iste’molchilar yuqorida ko‘rsatilgan majburiyatlar bilan birgalikda quyidagilarga majbur: